

## TARIX FANINI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19425033>

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada tarix fanini o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini keng tahlil qilinadi. Raqamli vositalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri, ularning didaktik imkoniyatlari hamda mavjud muammolarni aniqlashdan iborat. Raqamli texnologiyalar tarixiy bilimlarni chuqurlashtirish, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va interaktiv o‘qitishni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, texnik infratuzilma yetishmasligi, raqamli savodxonlik darajasining pastligi va axborotning ishonchliligi kabi muammolar mavjud. Tadqiqot yakunida ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** *raqamli texnologiyalar, tarix ta’limi, interaktiv metodlar, pedagogik innovatsiyalar, raqamli savodxonlik, masofaviy ta’lim, virtual ta’lim*

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi o‘qitish metodikasini yangilash, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va ta’lim sifatini oshirish imkonini bermoqda. Tarix fani o‘ziga xos murakkab fanlardan biri bo‘lib, unda voqea va jarayonlarni tushunish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash, tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy o‘qitish usullarida bu jarayon ko‘proq matnli ma’lumotlar va og‘zaki tushuntirishlarga tayanadi. Raqamli texnologiyalar esa tarix fanini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi: virtual sayohatlar, interaktiv xaritalar, multimedia materiallar orqali tarixiy voqealarni “jonlantirish” mumkin. Shu bilan birga, bu jarayon bir qator muammolarni ham yuzaga keltiradi.

Tarix fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari bugungi kunda cheksiz desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Ularni quyidagicha ifodalash mumkin: interaktivlik va vizuallikni oshirish multimedia vositalari (video, animatsiya, 3D modellar) tarixiy voqealarni aniq tasavvur qilish imkonini beradi, axborotga tezkor kirish internet va elektron kutubxonalar orqali o‘quvchilar tarixiy manbalardan keng foydalanish imkoniga ega bo‘ladi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim raqamli platformalar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish imkonini beradi, masofaviy ta’limni rivojlantirish onlayn darslar orqali geografik cheklolrsiz ta’lim olish imkoniyati yaratiladi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish turli manbalarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash shakllanadi.

Raqamli texnologiyalarni imkoniyatlari bilan bir qatorda ba’zi hollarni muammo va kamchiliklari ham uchrab turadi. Bugungi kunda quyidagi muammolarga duch kelishimiz mumkin: texnik infratuzilma muammolari barcha maktablarda internet va zamonaviy qurilmalar yetarli emasligi, raqamli savodxonlik yetishmasligi o‘qituvchilarning hammasi ham zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llay olmaydilar, axborot sifati va ishonchliligi internetdagi ma’lumotlarning barchasi ham ilmiy asoslangan emasligi, diqqatning pasayishi noto‘g‘ri foydalanilganda o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itishi mumkin, texnologiyaga qaramlik ortiqcha foydalanish mustaqil o‘rganish ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar tarix fanini o‘qitishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular o‘quvchilarning faolligini oshiradi, darslarni qiziqarli

va samarali qiladi. Biroq texnologiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi shartlar zarur: o’qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish; ta’lim muassasalarini texnik jihatdan ta’minlash; sifatli va ishonchli elektron resurslar yaratish; pedagogik yondashuvni to’g’ri tanlash. Shuningdek, kelajakda sun’iy intellekt, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalaridan foydalanish tarix ta’limini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanini o’qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o’quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va zamonaviy ko’nikmalarni rivojlantiradi.

Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur. Ayniqsa, o’qituvchilar malakasini oshirish va texnik bazani mustahkamlash muhim vazifalardan biridir. O’qituvchilar uchun muntazam IT-treninglar tashkil etish, maktablarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, milliy elektron tarixiy resurslar bazasini yaratish, darslarda texnologiyadan me’yorida foydalanish, o’quvchilarda axborot madaniyatini doimiy shakllantirib borish maqsadga muvofiq bo’ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**

1. Xusanboy Mo’minov. Raqamli tarix. Darslik. 2022
2. Bates, A. W. (2019). *Teaching in a digital age*. BCcampus.
3. Koehler, M. J., & Mishra, P. (2009). Technological pedagogical content knowledge. *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education*, 9(1), 60–70.
4. Selwyn, N. (2016). *Education and technology*. Bloomsbury Publishing.
5. UNESCO. (2021). *Digital education transformation*. UNESCO.
6. Voogt, J., & Roblin, N. (2012). 21st century competences. *Journal of Curriculum Studies*, 44(3), 299–321.